

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ECONOMIC
Business | Finance | Investment

UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lim massalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxonada faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit instutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	



IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR SUBYEKTLARINING FAOLIYATINI MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI RAG'BATLANTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI

Mahmudov Nurali Komilovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: nuralimahmudov32@gmail.com.

ORCID: 0009-0009-0131-8719

Annotatsiya: Maqolada real sektor subyektlarini rivojlantirish maqsadida davlat, tijorat banklari, moliyaviy institutlar va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan moliya, kredit liniyalari, grantlar, kafolatlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini berishda moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganilgan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, rag'batlantirish, real sektor, moliya, kredit, subsidiyalar.

Abstract: The article studies the experiences of advanced foreign countries in encouraging real sector entities through financial and credit mechanisms in providing finance, credit lines, grants, guarantees, subsidies, and tax incentives provided by the state, commercial banks, financial institutions, and international financial and credit organizations for the development of the sector, and makes suggestions.

Keywords: economy, stimulation, real sector, finance, credit, subsidies.

Аннотация: В статье рассматривается опыт передовых зарубежных стран по стимулированию субъектов реального сектора экономики с использованием финансово-кредитных механизмов в части предоставления финансирования, кредитных линий, грантов, гарантий, субсидий, налоговых льгот, предоставляемых государством, коммерческими банками, финансовыми институтами, международными финансово-кредитными организациями для развития отрасли, и даются предложения.

Ключевые слова: экономика, стимулирование, реальный сектор, финансы, кредит, субсидии.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida real sektor subyektlari, ya'ni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, iqtisodiy o'sishning tayanch ustuni hisoblanadi. Ularning barqaror va innovatsion faoliyat yuritishini ta'minlashda moliya-kredit mexanizmlarining tutgan o'rni nihoyatda muhimdir. Dunyodagi turli mamlakatlar real sektor subyektlarini rag'batlantirishda kredit tizimlari, davlat kafolatlari va subsidiyalar asosida shakllangan kompleks yondashuvlardan foydalanmoqda. Ushbu maqolada real sektorni moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning ilg'or xalqaro tajribalari tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning real sektori subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish masalasi bugungi global iqtisodiy sharoitda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish kabi real sektor tarmoqlarining barqaror rivojlanishi moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir. Shu bois, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z milliy iqtisodiy siyosatlarida moliya-kredit mexanizmlarini real sektorni qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi sifatida qaramoqda.



Shuningdek, ushbu tahlil orqali xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan moliya-kredit vositalarining turlari, ularning real sektor subyektlari faoliyatiga ta'siri, iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi va barqarorlikka ta'sir omillari aniq faktlar va statistik ma'lumotlar asosida asoslab beriladi. Olingan natijalar esa O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarni moslashtirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Shu sababli ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar real sektor subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rmoqda. Bu borada moliya-kredit mexanizmlari asosiy instrument sifatida keng qo'llanilmoqda.

Birinchi navbatda, Dani Rodrik tomonidan ilgari surilgan g'oyalar alohida e'tiborga loyiqdir. U iqtisodiy o'sishni ta'minlashda universal model yo'qligini, har bir davlat o'zining institutsional, madaniy va tarixiy xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan siyosat yuritishi zarurligini ta'kidlaydi [1]. Uning fikriga ko'ra, real sektorni rivojlantirishda kredit resurslarini yo'naltirish strategik yondashuv bo'lishi kerak, bunda davlat institutlarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur g'oya Janubiy Koreya va boshqa Sharqiy Osiyo davlatlari tajribasida o'z isbotini topgan. Ha-Joon Chang tomonidan olib borilgan tarixiy tahlillarda ta'kidlanishicha, bu mamlakatlar sanoat siyosatini imtiyozli kreditlash, eksportga yo'naltirilgan korxonalariga subsidiyalar ajratish va xususiy sektorni soliq yengilliklari bilan rag'batlantirish orqali amalga oshirgan [2].

Xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banking real sektorga nisbatan siyosati esa Joseph Stiglitz tomonidan tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi [3]. U ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda makroiqtisodiy barqarorlik nomi ostida real sektorga zarur bo'lgan investitsion va kredit resurslari qisqartirilganini qayd etadi. Stiglitzning fikricha, kredit bozoridagi tengsizlik va moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi cheklovlar real sektorni sustlashtiruvchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, real sektor subyektlarining moliyaviy muhitga sezgirligi Markus Brunnermeier va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan. Ular moliyaviy sikllar, likvidlik inqirozlari va kredit bozorlaridagi uzilishlarning real sektordagi investitsion faoliyatga salbiy ta'sirini ochib bergan [4].

Daron Acemoglu va James Robinson o'zlarining mashhur asarida iqtisodiy muvaffaqiyatning poydevori sifatida "inklyuziv institutlar" tushunchasini ilgari suradi [5]. Ular kredit resurslarining adolatli va samarali taqsimoti uchun egalik huquqi, kontraktlar bajarilishi, sud tizimining mustaqilligi va korrupsiyasizlik muhimligini ta'kidlaydi. Bu mezonlar mavjud bo'lmagan holatlarda moliya-kredit mexanizmlaridan foydalanish real sektor uchun zararli bo'lishi mumkin.

Avvalo, rossiyalik olimlar tadqiqotlarida real sektorni kreditlash tizimining evolyutsiyasi va uning samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, V.M. Polterovich Rossiya iqtisodiyotida moliyaviy resurslar taqsimotidagi nosimmetriklilik va kredit institutlari zaifligi sababli real sektor investitsiyalariga salbiy ta'sir o'tkazilganini ta'kidlaydi [6]. Uning fikricha, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun "institutsional muvofiqlashtirish" mexanizmlari zarur bo'lib, bu banklar, hukumat va ishlab chiqaruvchi subyektlar o'rtasida ishonch va uzoq muddatli manfaatlarni shakllantirish orqali erishiladi.

Shuningdek, T.V. Teplova real sektorni investitsiyaviy moliyalashtirishda moliya vositalarining diversifikatsiyasi muhimligini ko'rsatadi [7]. U obligatsiyalar bozori, davlat kafolatlari va xususiy kreditlash imkoniyatlarini kompleks yondashuvda tahlil qilgan va moliyaviy bozorlarning barqarorligi real sektorning faoliyatini to'liq qo'llab-quvvatlashini asoslab bergan.

Qozog'istonlik olim G.G. Kurmanalieva esa MDH davlatlarida kredit infratuzilmasining zaifligi real sektorga uzoq muddatli investitsiyalar jalb qilishda asosiy to'siq bo'layotganini aniqlaydi [8]. U o'z tadqiqotida davlat moliyaviy institutlari va banklar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish, kredit risklarini taqsimlash mexanizmlarini joriy etishni taklif qiladi.

Jumladan, A.X. Saidov o'z tadqiqotida respublikada real sektorni moliyaviy rag'batlantirishda tijorat banklari yetarli darajada faol emasligini, ularning kredit siyosati ko'proq qisqa muddatli aylanma mablag'larga yo'naltirilganini qayd etadi [9]. U moliya-kredit mexanizmlarining institutsional jihatdan takomillashtirilishi zarur deb hisoblaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida umumlashtirilgan xulosa shundan iboratki, xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston olimlari moliya-kredit mexanizmlarining real sektor faoliyatiga ta'sirini kompleks yondashuv asosida baholaydilar. Ular institutlar sifati, bank tizimining rivojlanganligi, moliyaviy infratuzilma, davlat siyosati va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi hamkorlik darajasini bu jarayonning asosiy omillari sifatida belgilaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning real sektor subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Xorijiy davlatlar iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan real sektor, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohasining rivojini ta'minlash maqsadida moliyaviy va kredit mexanizmlaridan faol foydalanib kelmoqda.

AQShda iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy rag'batlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu jarayon ko'p qirrali institutlar va moliyaviy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion loyihalarni ilgari surish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. AQShda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida eksport kreditlari, eksport sug'urtasi va kafolatlar taklif qilinadi.

YI mamlakatlarida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi iqtisodiyotning turli sohasiga, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va yashil iqtisodiyotga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishlarda bir nechta muhim institut va dasturlar faoliyat yuritadi. Avvalo, Yevropa investitsiya banki (EIB) hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) YI miqyosida real sektor subyektlariga uzoq muddatli, past foizli kreditlar ajratish orqali sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu institutlar infratuzilmani modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashuv loyihalarini moliyalashtirishga katta e'tibor qaratadi. Kreditlash mexanizmlari ayniqsa kichik va o'rta korxonalar (KOB) uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, bu esa ularning bozorga kirishi va raqobatbardoshligini oshiradi.

YI doirasida qishloq xo'jaligi hamda ekologik toza ishlab chiqarishni moliyaviy rag'batlantirish maqsadida Yevropa Qishloq Rivojlanish Jamg'armasi (EAFRD) faoliyat yuritadi. Mazkur jamg'arma orqali ekologik barqaror dehqonchilik, organik mahsulotlar yetishtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarga subsidiyalar ajratiladi. Bu esa qishloq hududlarida yashovchi aholining daromadini oshirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi so'nggi o'n yilliklarda sanoat va eksport salohiyatini misli ko'rilmagan darajada rivojlantirishga erishdi. Bunda davlatning real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi faol roli hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Xitoy modeli o'zining kuchli moliyaviy institutlari, davlat tomonidan boshqariladigan kredit siyosati va strategik sohalarga yo'naltirilgan subsidiyalari bilan ajralib turadi.

Avvalo, China Development Bank (CDB) va Export-Import Bank of China (China EXIM Bank) kabi yirik davlat banklari real sektorga uzoq muddatli va arzon kreditlar ajratishda asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, faqat China Development Bank 2023-yilda umumiy qiymati yiliga 1,6 trillion yuan (taxminan 230 mlrd AQSh dollari) bo'lgan yangi kredit liniyalarini sanoat va infratuzilma loyihalariga yo'naltirgan. Mazkur banklar tomonidan elektr energetikasi, neft-kimyo sanoati, avtomobilsozlik, telekommunikatsiya va sun'iy intellekt sohasiga faol moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi.

Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilgan korxonalariga kreditlar, soliq stavkalarining pasaytirilishi, amortizatsiyani tezlashtirish kabi rag'batlantiruvchi choralar ko'rilmogda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, raqamli ishlab chiqarish, "aqlli texnologiyalar" va 5G texnologiyalar asosida ishlovchi sanoat obyektlariga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada 2024-yilga kelib Xitoyda "raqamli sanoat klasterlari" soni 300 dan oshdi va ular mamlakat sanoat ishlab chiqarishining 25 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda.

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning faol ishtiroki, strategik sohalarga yo'naltirilgan moliyalashtirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va global bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish iqtisodiy o'sishning asosiy kalitidir. Bu yondashuvni boshqa mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston ham o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib qo'llashi mumkin.

Janubiy Koreya qisqa tarixiy davr ichida agrar jamiyatdan texnologik jihatdan ilg'or sanoat iqtisodiyotiga aylangan mamlakat sifatida dunyo miqyosida e'tirof etiladi. Bunda davlatning real sektorni, ayniqsa sanoat va eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi faol roli hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Koreya modeli moliyaviy institutlar, innovatsion markazlar, eksportni rag'batlantirish dasturlari va raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror sanoat bazasini shakllantirgan. Korea Development Bank (KDB) Koreyada sanoat infratuzilmasini qo'llab-quvvatlaydigan asosiy moliyaviy institut hisoblanadi. Ushbu bank yirik sanoat korxonalariga uzoq muddatli va arzon kreditlar ajratib, texnologik modernizatsiya, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi zavodlarni qurish loyihalarini moliyalashtiradi. 2023-yilda KDB tomonidan sanoat korxonalariga ajratilgan umumiy kredit hajmi 96 trillion von (taxminan 73 milliard AQSh dollari)ni tashkil etdi. Bank, xususan, yarim o'tkazgichlar, avtomobilsozlik, kemasozlik va elektronika sanoatiga ustuvorlik beradi.

Janubiy Koreya sanoatini "to'rtinchi sanoat inqilobi" talablariga moslashtirish maqsadida raqamlashtirish va avtomatlashtirishni faol qo'llab-quvvatlamogda. Smart Factory Initiative dasturi doirasida raqamli texnologiyalarni joriy qilgan ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va texnik yordam taqdim etilmogda. 2023-yil oxiriga kelib, mamlakatda 35 000 dan ortiq sanoat korxonalari raqamlashtirishga o'tgan



bo'lib, ulardan 70 foizi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Hukumat ushbu soha uchun 2022–2025-yillar davomida 4 trillion von (taxminan 3 mlrd AQSh dollari) miqdorida budget ajratgan.

Shunday qilib, Janubiy Koreya tajribasi davlat boshchiligida faol moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilma va eksportga yo'naltirilgan yondashuv orqali real sektorni zamonaviy, yuqori texnologiyali va raqobatbardosh shaklda rivojlantirishning samarali modelini taqdim etmoqda. Bu yondashuv sanoat ishlab chiqarishining barqaror o'sishiga, eksport salohiyatining kengayishiga va global texnologik raqobatda kuchli o'rin egallashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, real sektorni moliyalashtirish quyidagi asoslar orqali samarali tashkil etiladi: davlat ishtirokidagi moliyaviy institutlar orqali, uzoq muddatli va arzon foizli kreditlar ajratish orqali, soliq va bojxona imtiyozlari yordamida, innovatsion hamda eksportga yo'naltirilgan loyihalarni rag'batlantirish orqali.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimiz xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning real sektorini muvaffaqiyatli rag'batlantirish uchun davlat tomonidan maqsadli moliya-kredit mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar hamda institutsional rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektor subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish borasida xalqaro tajribalarni o'rganib, quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

Kichik va o'rta korxonalar (KOB) uchun alohida kredit liniyalari hamda kredit kafolati jamg'armalarini yaratish zarur (AQShning SBA modeli asosida).

Davlat moliyaviy institutlari orqali strategik sanoat tarmoqlarini uzoq muddatli va past foizli kreditlar bilan ta'minlash (Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi asosida).

Eksport qiluvchi korxonalarga sug'urta va kredit kafolatlari tizimini kengaytirish, shuningdek, eksport oldi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish (Koreya va AQSh tajribasi asosida).

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish; sanoat infratuzilmasi (infratuzilmalar, logistika, texnoparklar) qurilishida DXSh asosida kredit ajratish va kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi uchun real sektor subyektlarini moliyaviy rag'batlantirishda mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari va xalqaro tajribalar asosida moslashtirilgan kompleks yondashuv zarur. Davlat moliyaviy institutlari faoliyatini strategik tarmoqlar bilan uyg'unlashtirish, innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish, eksport salohiyatini kuchaytirish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim omillar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rodrik D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. – Princeton: Princeton University Press, 2008. – 368 s.
2. Chang H.-J. Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective. – London: Anthem Press, 2002. – 187 s.
3. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 288 s.
4. Brunnermeier M.K., Eisenbach T.M., Sannikov Y. Macroeconomics with Financial Frictions: A Survey // NBER Working Paper No. 18102. 2012.
5. Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. – New York: Crown Business, 2012. – 529 s.
6. Полтерович В.М. Институциональные ловушки и экономические реформы // Экономика и математические методы. – 1999. – Т. 35, №3. – С. 1–37.
7. Теплова Т.В. Финансовая архитектура экономики: инвестиции, рынки, рост. – М.: Дело, 2011. – 352 с.
8. Курманалиева Г.Г. Кредитно-финансовые инструменты стимулирования реального сектора экономики: мировой и казахстанский опыт. – Алматы: Экономика, 2014. – 228 с.
9. Саидов А.Х. Moliya-kredit mexanizmlarining iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdagi o'rni. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 204 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100